



SUG'URTA ZAXIRALARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISHNING SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLİYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

FORMATION AND MANAGEMENT OF INSURANCE RESERVES AS A FACTOR OF ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF INSURANCE ORGANIZATIONS

¹**Umarova Gulnora Akromovna**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot katta o'qituvchisi.*
G-mail: gumarova928@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada sug'urta zaxiralarining iqtisodiy mohiyati, ularni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari hamda sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi roli tadqiq etilgan. Sug'urta zaxiralarining ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi, ma'lum qilingan, biroq tartibga solinmagan zararlar zaxirasi, sodir bo'lgan, biroq ma'lum qilinmagan zararlar zaxirasi va uzoq muddatli sug'urta majburiyatlari bo'yicha zaxiralar kabi asosiy shakllari tizimlashtirilgan. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, statistik, aktuar va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan. O'zbekiston sug'urta bozorining 2024-yil yakunlari va 2026-yil I-choragi bo'yicha ochiq rasmiy ma'lumotlari asosida sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasi tahlil qilinib, zaxiralarga bo'lgan talabni kuchaytiruvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijasida zaxiralarni riskka asoslangan baholash, stress-test, aktuar modellash, qayta sug'urtalash va aktiv-majburiyatlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarini integratsiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the economic essence of insurance reserves, the theoretical and methodological foundations of their formation, and their role in ensuring the financial stability of insurance organizations. The main types of reserves, including unearned premium reserves, reported but not settled claims reserves, incurred but not reported claims reserves, and reserves for long-term insurance obligations, are systematized. The study applies systematic, comparative, statistical, actuarial and economic analysis methods. Based on official data for 2024 and the first quarter of 2026, the development of the insurance market of Uzbekistan is analyzed and factors increasing the requirements for reserve adequacy are identified. Scientific and practical recommendations are developed to integrate risk-based reserving, stress testing, actuarial modeling, reinsurance, and asset-liability management into the insurance reserve system.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ sug'urta zaxiralari, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, aktuar hisob-kitob, moliyaviy barqarorlik, to'lovga qobiliyatlilik, sug'urta riski, qayta sug'urtalash, zararlar zaxirasi, ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi.

❖ insurance reserves, insurance premium, insurance claim, actuarial calculations, financial stability, solvency, insurance risk, reinsurance, claims reserve, unearned premium reserve.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining turli risklardan ko'rilishi mumkin bo'lgan moliyaviy zararlarini qoplash, iqtisodiy faoliyat uzluksizligini ta'minlash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlari o'z faoliyati davomida ko'plab sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni qabul qiladi. Mazkur majburiyatlarning kelgusida bajarilishini ta'minlash uchun yetarli moliyaviy resurslarni oldindan shakllantirish zarur.

Sug'urta zaxiralari aynan shu vazifani bajaruvchi moliyaviy mexanizm bo'lib, ular sug'urta tashkilotining kelgusidagi to'lovlari va boshqa sug'urta majburiyatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Zaxiralar hajmining yetarli bo'lishi kompaniyaning to'lovga qobiliyatligi va likvidligini ta'minlash, zaxiralarning ortiqcha shakllantirilishi investitsiya uchun mavjud mablag'larning samarasiz band bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zaxiralashda "yetarlilik" va "samaradorlik" o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

O'zbekiston sug'urta bozorining jadal rivojlanishi ushbu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda qariyb 10 mln sug'urta shartnomasi tuzilgan, yig'ilgan sug'urta mukofotlari 9,8 trln so'mni, sug'urta to'lovlari 2,2 trln so'mni, sug'urtalovchilarning jami aktivlari esa 11,8 trln so'mni tashkil etgan. Sug'urta mukofotlari yil davomida 21 foizga, to'lovlar 9 foizga, aktivlar 24,9 foizga oshgan [1].

2026-yil I-choragida ham bozorning o'sish tendensiyasi davom etdi. Umumiy sug'urta sohasida jami sug'urta mukofotlari 2025-yil I-choragidagi 2 434,8 mlrd so'mdan 2026-yil I-choragida 3 740,6 mlrd so'mga yetib, 53,6 foizga oshgan [2]. Bozor hajmining kengayishi sug'urtalovchilar zimmasidagi

majburiyatlar hajmining ham oshishini anglatadi. Bu esa sug'urta zaxiralarini aniq va ilmiy asosda shakllantirishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi sug'urta zaxiralarining iqtisodiy mohiyati va tarkibini o'rganish, ularni shakllantirish va boshqarishning amaldagi mexanizmlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida zaxiralarning yetarliligi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonlik olimlarning sug'urta sohasidagi tadqiqotlarida sug'urta munosabatlarining iqtisodiy mohiyati, risklarni taqsimlash va sug'urta fondlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. H.R. Sobirov sug'urta munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etib, sug'urta fondining iqtisodiy mohiyatini sug'urtalanuvchilar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan moliyaviy resurslarni shakllantirish bilan bog'laydi [3]. Mazkur yondashuv sug'urta zaxiralarining shakllanishini sug'urta fondining zamonaviy shakli sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

A.V. Vahobov va T.S. Malikovning moliya bo'yicha ilmiy qarashlarida sug'urta moliya tizimining muhim bo'g'ini sifatida talqin qilinib, sug'urta munosabatlarining moliyaviy resurslarni shakllantirish va qayta taqsimlashdagi roli yoritiladi [4]. Ushbu yondashuv sug'urta zaxiralarini sug'urta tashkilotlari ixtiyorida vaqtincha jamlanadigan, biroq kelgusidagi majburiyatlarni bajarishga xizmat qiladigan moliyaviy resurslar sifatida baholashga asos bo'ladi.

I.X. Abduraxmonovning sug'urta nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarida sug'urta risklari, sug'urta shartnomalari, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy faoliyati va sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari kompleks ko'rib chiqilgan [5]. Muallifning yondashuvida riskni

aniqlash, baholash va boshqarish sug'urta faoliyatining samaradorligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu zaxiralarni risklarning real darajasiga mos shakllantirish zaruratini asoslaydi.

Zamonaviy mahalliy tadqiqotlarda sug'urta zaxiralarini xalqaro standartlar asosida hisobga olish va baholash masalalari ham o'rganilmoqda. N. Najimovanning tadqiqotlarida sug'urta tashkilotlarida zaxiralarni xalqaro standartlar asosida hisobga olishni takomillashtirish, zaxiralarni sug'urta majburiyatlari va moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq holda baholash masalalariga e'tibor qaratilgan [6].

A.Y. Xolbayev sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarishni kompleks yondashuv asosida tadqiq etib, to'lovga qobiliyatlilik, likvidlik, kapital yetarliligi va risklarni boshqarishning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi [7]. Mazkur yondashuv sug'urta zaxiralarini moliyaviy barqarorlikning alohida emas, balki o'zaro bog'langan elementlaridan biri sifatida baholashni taqozo etadi.

G.S. Abdujalilovanning hayot sug'urtasida aktuar hisob-kitoblarning o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlarida umr davomiyligi funksiyalaridan sug'urta mahsulotlarini narxlash, rezervlarni hisoblash va risklarni baholashda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan [8]. Ushbu ilmiy yondashuv hayot sug'urtasida matematik zaxiralarni shakllantirish uchun aktuar modellarni rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

M.Y. Tuxtarovanning tadqiqotlarida mulk sug'urtasida risklarni baholash va anderrayting metodologiyasini takomillashtirish, falokatli risklarni modellashtirish, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan [9]. Mazkur yondashuv zaxiralash jarayonini risklarni aniqlash va baholashning dastlabki bosqichlari bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston olimlari sug'urta

zaxiralarini sug'urta fondi, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, aktuar hisob-kitoblar va xalqaro standartlar bilan bog'liq holda tadqiq etmoqda. Biroq zaxiralarni shakllantirishda raqamli ma'lumotlar, real vaqt monitoringi, mashinaviy o'qitish, stress-test va aktiv-majburiyatlarni kompleks muvofiqlashtirish masalalari hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy yo'nalishini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, statistik, iqtisodiy-matematik va aktuar tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali sug'urta zaxiralari sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, qayta sug'urtalash, investitsiyalar va kapital bilan o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Qiyosiy tahlil yordamida turli davrlardagi sug'urta bozori ko'rsatkichlari taqqoslandi.

Empirik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining sug'urta bozoriga oid ochiq ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy olimlarning ilmiy ishlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha materiallardan foydalanildi [1-11].

Zaxiralarning yetarliligini umumiy baholash uchun quyidagi ko'rsatkichdan foydalanish taklif etiladi:

$$Kz = SZ / KSM \times 100\%,$$

bu yerda Kz — zaxira yetarliligi koeffitsiyenti; SZ — shakllantirilgan sug'urta zaxiralari; KSM — kelgusidagi kutilayotgan sug'urta majburiyatlari summasi.

Zaxiralash yuklamasi quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$Kzm = SZ / SM \times 100\%,$$

bu yerda Kzm — zaxiralash yuklamasi; SM — sug'urta mukofotlari. Ushbu ko'rsatkich zaxiralarning mukofotlar hajmiga nisbatan dinamikasini baholash imkonini beradi.

Sug'urta to'lovlarining mukofotlarga nisbati esa zararlar yuklamasini aniqlashga

xizmat qiladi: $Kz = ST / SM \times 100\%$, bunda ST — sug'urta to'lovlari. Ko'rsatkichlarning dinamik tahlili zaxiralash siyosatidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sug'urta zaxiralari sug'urta tashkilotining kelgusidagi majburiyatlarini moliyaviy ta'minlash uchun shakllantiriladi.

Ularning tarkibi sug'urta faoliyatining turiga, shartnomalarning amal qilish muddatiga, risklarning xususiyatiga va da'volarning tartibga solinish tezligiga qarab farqlanadi. Umumiy sug'urta turlarida ishlab topilmagan mukofotlar va zararlar zaxiralari muhim o'rin tutsa, hayot sug'urtasida uzoq muddatli matematik zaxiralar ustunlik qiladi.

1-jadval

Sug'urta zaxiralarning asosiy turlari va ularning vazifalari

Nº	Zaxira turi	Iqtisodiy mazmuni	Vazifasi
1	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi	Kelgusi sug'urta davrlariga tegishli mukofot qismi	Kelgusi sug'urta himoyasini moliyalashtirish
2	Ma'lum qilingan, tartibga solinmagan zararlar zaxirasi	Ma'lum bo'lgan, lekin yakuniy to'lov qilinmagan zararlar	Mavjud da'volar bo'yicha to'lovlarni ta'minlash
3	Sodir bo'lgan, ma'lum qilinmagan zararlar zaxirasi	Sodir bo'lgan, ammo hali bildirilmagan zararlar	Kechikkan da'volarni qoplash
4	Matematik zaxira	Uzoq muddatli sug'urta majburiyatlarining hisoblangan qiymati	Kelgusidagi uzoq muddatli to'lovlarni ta'minlash
5	Stabilizatsion/qo'shimcha zaxira	Yuqori o'zgaruvchan va yirik risklar uchun ajratma	Favqulodda zararlar ta'sirini yumshatish

Manba: Muallif ishlanmasi asosida shakllantirilgan.

Jadvaldan ko'rinadiki, zaxiralar sug'urta tashkilotining turli bosqichdagi majburiyatlarini qoplashga xizmat qiladi. Shu sababli ularni faqat jami summa orqali emas, balki har bir zaxira turi bo'yicha alohida

baholash zarur. Ayniqsa, IBNR zaxirasini to'g'ri hisoblash sug'urta tashkilotining real majburiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorining 2023-2025-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Sug'urta mukofotlari, trln so'm	8,06	9,77	13,46
Sug'urta to'lovlari, trln so'm	2,02	2,20	2,99
Sug'urtalovchilar aktivlari, trln so'm	~9,45	11,8	15,0
Yangi tuzilgan sug'urta shartnomalari, mln dona	9,13	9,69	12,08

Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2023, 2024 va 2025-yillar yakunlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari [1; 10]. 2023-yil aktivlari 2024-yilda qayd etilgan 24,9 foizlik o'sishdan kelib chiqib taxminiy hisoblangan; 2025-yil aktivlari Agentlikning 2025-yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlari asosida keltirilgan.

2023-2025-yillar davomida O'zbekiston sug'urta bozorida asosiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi. Sug'urta mukofotlari 2023-yildagi 8,06 trln so'mdan

2024-yilda 9,77 trln so'mga, 2025-yilda esa 13,46 trln so'mga yetdi. Shu davrda sug'urta to'lovlari 2,02 trln so'mdan 2,99 trln so'mgacha oshdi. Bu sug'urta operatsiyalari hajmining

kengayishi bilan birga sug'urtalovchilar zimmasidagi kelgusidagi majburiyatlar va zaxiralarga bo'lgan talabning ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Sug'urta mukofotlarining 2023-2025-yillarda qariyb 67 foizga oshgani bozorning jadal kengayayotganidan dalolat beradi. Bunday sharoitda zaxiralarni shakllantirishda faqat mukofotlar hajmi emas, balki sug'urta to'lovlari, risklar tarkibi, da'volar chastotasi va zararlarning o'rtacha miqdorini ham hisobga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2023, 2024 va 2025-yillar yakunlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari asosida sug'urta bozorining so'nggi uch yillik dinamikasi tahlil qilindi.

Tahlilda mavhum yoki taxminiy ko'rsatkichlardan imkon qadar voz kechilib, Agentlikning rasmiy yillik statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Bu yondashuv sug'urta zaxiralariga bo'lgan ehtiyoj va moliyaviy barqarorlik bo'yicha ilmiy xulosalarni aniqroq shakllantirish imkonini beradi [1; 10].

Aktivlarning 11,8 trln so'mgacha oshishi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy bazasi kengayayotganini anglatadi. Biroq aktivlar hajmining o'sishi avtomatik tarzda zaxiralarning yetarililigini anglatmaydi. Aktivlarning tarkibi, likvidligi, daromadliligi va sug'urta majburiyatlarining muddatlari o'rtasidagi muvofiqlik ham baholanishi kerak.

3-jadval

2026-yil I-choragida umumiy sug'urta bozorining ayrim ko'rsatkichlari

Nº	Ko'rsatkich	2025-yil I-chorak	2026-yil I-chorak	O'zgarish
1	Jami sug'urta mukofotlari, mlrd so'm	2 434,8	3 740,6	+53,6%
2	Sof sug'urta mukofotlari, mlrd so'm	1 624,3	2 854,6	+75,7%
3	Qayta sug'urtaga berilgan mukofotlar, mlrd so'm	810,6	886,0	+9,3%
4	Qayta sug'urtadan qabul qilingan mukofotlar, mlrd so'm	556,0	895,0	+61,0%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2026-yil I chorak yakunlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari [2].

2026-yil I-choragidagi rasmiy ma'lumotlar ham sug'urta bozorining yuqori sur'atlarda o'sayotganini ko'rsatadi. Jami sug'urta mukofotlari 2025-yil I-choragidagi 2 434,8 mlrd so'mdan 2026-yil I-choragida 3 740,6 mlrd so'mga, ya'ni 53,6 foizga oshgan. Sof sug'urta mukofotlarining 75,7 foizga o'sishi sug'urtalovchilar zimmasida qolayotgan risklarning kengayayotganini anglatadi. Shunday sharoitda zaxiralarning hajmini faqat mukofotlarning o'sish sur'atiga bog'lash noto'g'ri bo'lib, risk tarkibi, da'valarning chastotasi, zararlarning o'rtacha miqdori va qayta sug'urtalash darajasi ham hisobga olinishi kerak [2].

Qayta sug'urtaga berilgan mukofotlarning 9,3 foizga oshishi sug'urta

tashkilotlari tomonidan yirik va yuqori darajadagi risklarning bir qismini qayta sug'urtalovchilarga o'tkazish amaliyoti kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qayta sug'urtadan qabul qilingan mukofotlarning 61 foizga o'sishi qayta sug'urtalash operatsiyalarining sug'urta bozoridagi ulushi va iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur tendensiya sug'urtalovchilarning risklarni diversifikatsiya qilish, zararlar yuklamasini kamaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq qayta sug'urtalashdan olinadigan qoplamalarni zaxiralash jarayonida faqat ularning hajmini emas, balki qayta sug'urtalovchining moliyaviy ishonchliligi,

kredit riski, shartnoma shartlari hamda qoplamalarni undirish muddati kabi omillarni ham hisobga olish lozim. Ayniqsa, qoplama mablag'larining kechikib tushishi sug'urtalovchining likvidligiga va mavjud zaxiralarning yetarliligiga salbiy ta'sir

ko'rsatishi mumkin. Shu sababli qayta sug'urtalash operatsiyalarini zaxiralarni boshqarish va risklarni baholash tizimi bilan uzviy bog'liq holda tashkil etish maqsadga muvofiq [2].

4-jadval

Sug'urta zaxiralarini boshqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Formula/mazmuni	Iqtisodiy talqin
Zaxiralar yetarliligi	$SZ / KSM \times 100\%$	Kelgusidagi majburiyatlarni qoplash imkoniyati
Zaxiralash yuklamasi	$SZ / SM \times 100\%$	Zaxiralarning mukofotlarga nisbati
Zararlar yuklamasi	$ST / SM \times 100\%$	To'lovlarning mukofotlarga nisbati
Aktivlar bilan qoplanganlik	$Qoplovchi\ aktivlar / SZ \times 100\%$	Zaxiralarning aktivlar bilan ta'minlanganligi
Qayta sug'urtalash darajasi	Qayta sug'urtaga berilgan mukofot / jami mukofot	Riskning qayta taqsimlanish darajasi

Manba: Muallif ishlanmasi asosida shakllantirilgan.

Taklif etilayotgan ko'rsatkichlar tizimi sug'urta zaxiralarini bir tomonlama emas, kompleks baholash imkonini beradi. Xususan, zaxiralarning yetarliligi bilan bir qatorda ularni qoplovchi aktivlarning sifati, sug'urta to'lovlari dinamikasi va qayta sug'urtalash darajasi ham hisobga olinadi.

Zaxiralarni boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri aktuar usullarni takomillashtirishdir. Zararlar zaxirasini hisoblashda Chain-Ladder va Bornhuetter-Ferguson kabi usullardan foydalanish mumkin. Biroq ushbu usullarni O'zbekiston sharoitida qo'llashda mahalliy statistik ma'lumotlarning yetarliligi, zararlar rivojlanish davri va sug'urta mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Hayot sug'urtasida esa zaxiralarni hisoblash yanada murakkab bo'lib, sug'urtalanuvchining yoshi, umr davomiyligi, foiz stavkasi, mukofotlar va kelgusidagi to'lovlar oqimi kabi omillar aktuar modelga kiritiladi. Shu sababli mahalliy aktuar maktabni rivojlantirish va zamonaviy aktuar dasturiy vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Raqamlashtirish sug'urta zaxiralarini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirib, zaxiralarni shakllantirish, monitoring qilish va qayta baholash jarayonlarining tezkorligini oshirmoqda. Elektron polislar, avtomatlashtirilgan da'volarni ko'rib chiqish tizimlari va raqamli to'lov infratuzilmasi sug'urta operatsiyalari bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqtga yaqin rejimda yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Natijada sug'urta tashkilotlari zararlar dinamikasi, da'volar chastotasi va to'lovlar hajmidagi o'zgarishlarni tezroq aniqlashi hamda zaxiralar yetarliligini muntazam baholab borishi mumkin.

Kelgusida katta ma'lumotlar texnologiyalari va mashinaviy o'qitish vositalaridan foydalanish zararlarining yuzaga kelish ehtimoli, ularning chastotasi va kutilayotgan hajmini yanada aniq prognozlashga, shuningdek, risk segmentlari bo'yicha zaxiralarni differensial shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Bunday yondashuv zaxiralash siyosatini statik hisob-kitoblardan dinamik va riskka asoslangan boshqaruv tizimiga o'tkazish

imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli modellarni qo'llash model riski, ma'lumotlarning to'liqligi va sifati, algoritmlarning ishonchliligi hamda kiberxavfsizlik bilan bog'liq yangi xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli raqamli

texnologiyalarni joriy etish jarayonida model validatsiyasi, ma'lumotlar sifati nazorati, axborot xavfsizligi va aktuar ekspertizani birgalikda ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

5-jadval

Sug'urta zaxiralarini boshqarishdagi muammolar va taklif etilayotgan yechimlar

Nº	Muammo	Moliyaviy oqibat	Taklif
1	Statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi	Aktuar prognozlarda noaniqlik	Yagona zararlar bazasini shakllantirish
2	Risklar bo'yicha segmentatsiyaning pastligi	Ayrim portfellar kam yoki ortiqcha zaxiralanishi	Mahsulot va mijoz kesimida modellash
3	Inflyatsiya va makroiqtisodiy risklar	Kelgusidagi to'lovlarning oshishi	Stress-test va ssenariy tahlili
4	Qayta sug'urtalovchi kredit riski	Qoplamani undirishda kechikish	Qayta sug'urtalovchi reytingini monitoring qilish
5	Aktiv va majburiyat muddatlarining nomuvofiqligi	Likvidlik xavfi	ALM tizimini kuchaytirish
6	Raqamli model riski	Noto'g'ri zaxira prognozi	Model validatsiyasi va aktuar ekspertiza

Manba: Muallif ishlanmasi asosida shakllantirilgan.

Zaxiralarni boshqarishda aktiv va majburiyatlarni muvofiqlashtirish alohida ahamiyatga ega. Sug'urta zaxiralari hisobidan joylashtiriladigan aktivlarning muddati va likvidligi kelgusidagi sug'urta to'lovlari jadvaliga mos bo'lishi kerak. Qisqa muddatli majburiyatlarni uchun yuqori likvid aktivlar, uzoq muddatli hayot sug'urtasi majburiyatlari uchun esa barqaror daromadli uzoq muddatli aktivlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mahalliy ilmiy qarashlar va amaliy statistik tahlilni umumlashtirish asosida sug'urta zaxiralarini boshqarishning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi. Ushbu model besh bosqichdan iborat:

- 1) riskni aniqlash va segmentlash;
- 2) zararlar statistikasi asosida aktuar baholash;
- 3) bazaviy va stress ssenariylar bo'yicha zaxirani hisoblash;
- 4) qayta sug'urtalash va qoplovchi aktivlarni hisobga olish;

5) zaxiralar yetarliligini doimiy monitoring qilish.

Taklif etilayotgan modelning afzalligi shundaki, zaxiralash faqat o'tgan davr ma'lumotlariga asoslangan statik hisob-kitobdan dinamik, riskka asoslangan boshqaruv mexanizmiga aylanadi. Bu esa sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari sug'urta zaxiralari sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Zaxiralarning iqtisodiy mohiyati sug'urta tashkilotining kelgusidagi majburiyatlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdan iborat bo'lib, ularning hajmi va tarkibi sug'urta portfelining risk darajasiga mos bo'lishi kerak.

O'zbekiston olimlarining ilmiy qarashlari sug'urtani risklarni moliyaviy jihatdan boshqarish, sug'urta fondini shakllantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va aktuar baholash bilan bog'liq holda rivojlantirib kelayotganini ko'rsatadi. Mahalliy tadqiqotlarda zaxiralash, risklarni baholash va moliyaviy barqarorlikning alohida jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, ularni yagona raqamli va riskka asoslangan modelga birlashtirish istiqbolli ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

2024-yil yakunlari hamda 2026-yil I-choragi bo'yicha rasmiy ko'rsatkichlar sug'urta bozorining tez sur'atlarda kengayayotganini ko'rsatmoqda. Mukofotlar va sof mukofotlarning yuqori o'sish sur'atlari

sug'urtalovchilar zimmasidagi risk va majburiyatlarning ham kengayishini anglatadi. Shu sababli bozorning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda zaxiralarning sifatli va adekvat shakllantirilishini ta'minlash muhim.

Umuman olganda, sug'urta zaxiralarini boshqarishning zamonaviy modeli risklarni segmentlash, aktuar baholash, stress-test, qayta sug'urtalash, ALM va raqamli monitoringni yagona tizimga birlashtirishi lozim. Mazkur yondashuv sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, sug'urtalanuvchilar ishonchini mustahkamlash va O'zbekiston sug'urta bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2024-yil yakuni bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2025. – 28 b. – URL: <https://napp.uz/oz/news/statistics-and-analysis-for-im-2024>
2. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2026-yil I chorak yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2026. – URL: <https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im>
3. Sobirov H.R. O'zbekiston sug'urta tarixidan // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – 2000. – № 10. – B. 57.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: darslik. – Toshkent: Noshir, 2011. – 712 b. – ISBN 978-9943-353-52-7.
5. Abduraxmonov I.X. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 416 b. – ISBN 978-9943-13-726-4.
6. Najimova N. Sug'urta tashkilotlarida sug'urta zaxiralarini hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2026. – Vol. 6, № 03. – B. 20–31. – DOI: 10.55439/AFA/vol6_iss03/1333.
7. Xolbayev A.Y. Sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimi // O'zbekiston sug'urta bozori. – 2026. – Jild 3, № 1. – B. 20–24. – DOI: 10.55439/INS/vol3_iss1/356.
8. Abduljalilova G.S. O'zbekiston sug'urta amaliyotida umr davomiyligi funksiyalarini aniqlashda aktuar hisoblarning o'rni // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – Jild 3, № 4. – B. 8–12. – DOI: 10.5281/zenodo.15233322.
9. Tuxtarova M.Y. Mol-mulk sug'urtasida risklarni baholash va anderrayting metodologiyasini takomillashtirish // O'zbekiston sug'urta bozori. – 2026. – Jild 3, № 5. – B. 44–48. – DOI: 10.55439/INS/vol3_iss5/507.
10. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2025-yil yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2026. – 29 b. – URL: <https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im>
11. IFRS Foundation. IFRS 17 Insurance Contracts. – London: IFRS Foundation, 2023. – 180 p.